

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

AKSIZ SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA IJTIMOYIY- IQTISODIY AHAMIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

*Abdurasulov Murodjon
TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og'irligini haqiqatan ham byudjetga to'lovchilari tovar ish, xizmatni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi

Bilvosita soliqlar, xususan aksizlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastlab soliq tizimi vujudga kelishida to'g'ri, ya'ni bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so'ng bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig'i paydo bo'ldi va amaliyotga kiritildi.

Aksiz – lotincha “*accidere*” so'zidan olingan bo'lib kesish degan ma'noni anglatadi. Adabiyotlarda ushbu soliq turi asosan hashamat tovarlari shuningdek inson salomatligi hamda atrof muhit uchun zararli bo'lган tovarlarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan.

Umuman olganda, aktsiz solig'i tarixi uning monarxiyalar uchun daromad olish vositasidan zamonaviy jamiyatlarda xulq-atvorni tartibga solish va ijtimoiy muammolarni hal qilish vositasiga qadar evolyutsiyasini ko'rsatadi.

Aktsiz solig'i qadimiy sivilizatsiyalarga borib taqaladigan uzoq tarixga ega. Ayrim tovarlar yoki xizmatlarga ularning odatdagি stavkalaridan yuqori soliq solish tushunchasi tarix davomida turli shakllarda paydo bo'lgan.

Qadimgi Misrda miloddan avvalgi 3000-yillarda pivo va boshqa alkogollı ichimliklarga soliq solingan deb ishoniladi. Qadimgi Rimda imperator Avgust tovarlar, shu jumladan qullar va auktsionlar savdosiga soliq joriy qilgan.

O'rta asrlarda Yevropa monarxiyalari tomonidan urushlarni moliyalashtirish va zodagonlarning turmush tarzini saqlab qolish uchun aksiz solig'i undirilgan. Bu soliqlar ko'pincha sharob, tamaki, tuz va ziravorlar kabi hashamatli tovarlarga solingan.

17-asrda Angliyada aktsiz solig'i katta ahamiyat kasb etdi. Hukumat pivo, spirtli ichimliklar, sidr va tamaki kabi turli xil tovarlarga bojlar joriy qila boshladi. Bu soliqlar ingliz monarxiyasi uchun muhim daromad manbaiga aylandi.

Aktsiz solig'i tarixidagi muhim voqealardan biri Amerika inqilobidir. Britaniya hukumati Amerika mustamlakalariga 1765 yilgi Marka qonuni va 1773 yil Choy qonuni kabi bir qancha aksiz solig'ini joriy qildi. Bu soliqlar keng tarqalgan noroziliklarni keltirib chiqardi va oxir-oqibat inqilobga olib keldi.

Buyuk Britaniyadan mustaqillikka erishgandan so'ng, Qo'shma Shtatlar aksiz solig'idan daromad olish vositasi sifatida foydalanishda davom etdi. E'tiborga molik misollardan biri 1791 yilgi viski qo'zg'oloni, Pensilvaniyaning

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

g'arbiy qismidagi fermerlar prezident Jorj Vashington ma'muriyati tomonidan viskiga soliq qo'yishga qarshi norozilik bildirishgan.

Butun 19—20-asrlarda aktsiz solig'i keng doiradagi tovar va xizmatlarni qamrab olgan holda kengaytirildi. Dunyo bo'ylab hukumatlar alkogol, tamaki, benzin, o'qotar qurollar, avtomobillar, hashamatli buyumlar va hatto ba'zi atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalarga aksiz solig'ini o'rnatdilar.

So'nggi paytlarda hukumatlar aktsiz solig'ini nafaqat daromad olish uchun, balki aholi salomatligini mustahkamlash yoki zararli xatti-harakatlarning oldini olish vositasi sifatida ham qo'llagan. Misol uchun, ko'plab mamlakatlar iste'molni kamaytirish va sog'liq muammolarini hal qilish uchun sigaretalar va spirtli ichimliklarga aksiz solig'ini oshirdi.

Aksizlar tovar narxiga qo'shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo'yilgan qo'shimcha narx mahsulot ishlab chiqarishning unumdorligini yoki biron bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki aksiz tovarlarini ishlab chiqarish va realizasiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Aksizni keng va tor ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda bu tushuncha ostida, alohida tovarlarga aksizlar yoki individual aksizlar tushuniladi. Keng ma'noda esa aksiz tushunchasi individual aksizlarni ham, universal aksizlarni ham qamrab oladi. Ular o'rtasidagi farqi, uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog'liq. Bizga ma'lumki, tarixda dastlab individual aksizlar paydo bo'lган. Ular kiritish va undirish tartibi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, soliqning bu turi alohida tovarlardan qat'iy belgilangan stavkalar asosida undirilgan. Universal aksizlar esa keng qamrovga ega bo'lib, barcha holatlarda tovarlar, xizmatlar, ishlар realizasiyasi aylanmasi uni undirish obyekti bo'lib hisoblanadi. Universal aksizlarga oborotdan soliqlar, sotishdan olingan soliqlar, qo'shilgan qiymat soliqlari kiritilgan. Individual aksizlar chegaralangan ma'lum tovarlarga belgilangan va narxga kiritilib iste'molchi tomonidan to'langan.

Hozirgi vaqtida soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishi uchun muhim rol o'ynaydi. Alohida tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ularidan byudjetni to'ldirishning qo'shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog'liqdir. Ular jumlasiga:

1. Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlar iste'molini cheklash ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste'moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj.

3. Davlat monopoliyasida bo'lgan(neft, gaz) mahsulot ishlab chiqarish va realizasiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj kabilarni kiritish mumkin.

Milliy qonunchiligidan ko'ra (*Soliq kodeksining 229-moddasi*), quyidagilar aksiz solig'i to'lovchilar hisoblanadi:

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi.

O'zbekistonda o'tgan asrning 90 yillari boshidan buyon, ya'ni aksiz solig'i ilk bor joriy etilgan paytda ilmiy va amaliy doiralarda uni qo'llashning maqsadga muvofiqligi, stavkalari, hisoblash va undirish tartibi borasidagi munozaralar doimiy ravishda davom etib keldi.

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, 1999 yildan boshlab, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi. Bu ro'yxat aksiz solig'iga tortish nazariyasiga ko'proq mos keladi. Aksizlar asosan atrof-muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zebu-ziynat buyumlaridan undirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ishbilarmonlik muhitini transformatsiya qilish sharoitida biznes faoliyatini tartibga solish vositalariga hamda soliqqa tortish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunga asosan O'zbekiston iqtisodiyotidagi aksiz solig'iga tortish tendensiyalarini ko'rib chiqish va uni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

2019 yilgacha respublikada aksiz solig'i – qo'llanilishi inson salomatligi yoki atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar (sigaretalar, spirtli ichimliklar, benzin, dizel yoqilgisi, avtomobillar, kimyo sanoati mahsulotlari va boshq.) uchun belgilanar edi. Mahalliy ishlab chiqarilgan, shuningdek, respublikaga import qilinayotgan eng muhim oziq-ovqat mahsulotlariga aksiz solig'inining qo'llanilishi ularning qimmatlashishiga olib kelgan bo'lib, bu esa fuqarolar, shu jumladan, kam ta'minlanganlar xarajatlarining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Shu bois, fiskal mexanizmlarni isloh qilish jarayonida davlat import qilinadigan xomashyo, asosiy iste'mol tovarlari narxlari darajasiga soliqlarning ta'sirini kamaytirish, ularni xaridorlar uchun arzon qilish yo'lida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat aksiz solig'i stavkalariga tuzatish kiritish yordamida inson salomatligi va atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar iste'moliga ham ta'sir ko'rsatadi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Aksiz solig‘ini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekistonda aksiz solig‘ini qo‘llash Soliq kodeksining 283-293-moddalari bilan tartibga solinadi. Aksiz solig‘i stavkalari tovar qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) yoki naturada ifodalangan o‘chov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat‘iy belgilangan) belgilanadi.

Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, quyidagi yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar;
 - tabiiy gazni iste’molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;
 - benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan, avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, xusan, gazni gaz to‘ldirish stansiyalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;
- O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar.

Telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to‘lanadigan xizmatlar) ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari hamda O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari ham soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Aksiz solig‘i solinadigan ob’yektlar quyidagilardan iborat: aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

- aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav kapitaliga (ustav fondiga) hissa sifatida berish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;
- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;
- aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish va boshqalar

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to‘lanadigan tovarlarning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlar) nisbatan soliq stavkalari mutlaq summada belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi ularning naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi, soliq stavkalari foizlarda belgilanganlari uchun esa soliq bazasi bo‘lib realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymati ularning haqiqiy tannarxidan past bo‘lmagan holda hisoblanadi. Qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallar qiymatini o‘z ichiga oladi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi, soliq stavkalari qat'iy belgilanganlari bo'yicha esa soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lga aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, aksiz to'lanadigan tovarlarning hajmi va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanilgan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlarning fikrlariga qaraydigan bo'lsak ular aksiz solig'iga quyidagicha ta'riflar berishgan;

A. V. Vahobov, A. S. Jo'rayevlarning fikricha aksiz solig'I – O'zbekistonda aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'miga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. (A. V. Vahobov, A. S. Jo'rayev Soliqlar va soliqqa tortish «sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi toshkent—2009)

A.Yuldashevning fikricha – Aksiz solig'i bilvosita soliq turi bo'lib, tovar yoki xizmat narxiga ustama ko'rinishda undiriladi va pirovardida istc'molchi tomonidan to'lanadi. Aksizlar davlatning soliqqa doir umumiyligi siyosati tarkibiy qismi hisoblanadi hamda budjet daromadini ko'paytirish, ba'zi tovarlar istc'mol qilinishi (tamaki, spirtli ichimliklar), ishlab chiqarish ayrim turlarining ko'paytirish tabiatni muhofaza qilishga salbiy ta'siri oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy xarajatlar o'mini qoplashda, shuningdek, avtomobil yo'llari qurish va saqlash xarajatlarini, boshqa xarajatlami, himoyalash manbayi sifatida, vatanimizdagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda va hokazolar uchun qo'llaniladi. (A.Yuldashev Soliqlar va soliqqa tortish darslik)

Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'iga tortishni takomillashtirishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq ularning samaradorligi aksiz solig'iga tortishning asosiy vazifalarini (tengsizlikni kamaytirish, sog'lom turmush tarzi va ovqatlanishni rag'batlantirish, ekologiyani muhofaza qilish) bajarish uchun hali u qadar yuqori emas.

Nazarimizda, aksiz solig'iga tortishni yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- – mamlakatning JSTga a’zo bo‘lishiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida barcha turdagи mahalliy va import qilinadigan mahsulotlar uchun amaldagi aksiz solig‘i stavkalarini yanada unifikatsiya qilish yoki milliy soliqqa tortish tartibini joriy etish;
- – O‘zbekistonda mahalliy ishlab chiqarilgan va import qilinadigan, iste’moli gestatsion qandli diabet rivojlanishi xavfini kuchaytiradigan alkogolsiz tetiklashtiruvchi (energetik) ichimliklar uchun aksiz solig‘ini joriy etish;
- – istiqbolda ishlab chiqarilishi ko‘p energiya va hashamat buyumlarini talab qiladigan tovarlar, bitkoin ishlab chiqarish, oltin va qimmatbaho metallardan tayyorlangan mahsulotlar, qimmatbaho soatlar, parfyumeriya va boshqalar uchun aksiz solig‘ini joriy etishni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir (Xitoy shu maqsadda 15% stavkada o‘ziga xos iste’mol solig‘ini joriy qildi);
- – raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishni kengaytirish asosida spirthli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va neft mahsulotlarini realizatsiya qilish sohasida aksiz solig‘i yig‘imini monitoring qilish mexanizmini modernizatsiyalash (korrupsiya omilini bartaraf etish, soliq yig‘ish va mablag‘larni sarflashda shaffoflik va hisobdorlikni kengaytirish).

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga aksiz solig‘iga tortishni tartibga soluvchi qoidalarni soddalashtirish va unifikatsiya qilishni nazarda tutuvchi tegishli o‘zgartirishlar kiritish lozim.

Adabiyotlar:

1. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳияти тушунчаси ва унинг назарий асослари. // Бизнес эксперт (илмий-амалий журнал). – Тошкент, - №4. 2021. – 87-91 б.
2. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлилининг амалий жиҳатлари // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” 3/2023.
3. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
4. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Erubayevich, Mukhiddinova Baro Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
5. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2022). ISSUES OF PRODUCT PRICING IN THE ANALYSIS OF OPERATIONAL. Пандемия шароитида иқтисодиёт, молия ва бошқарувда рақамли трансформация жараёнлари (IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6641015>
6. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

7. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАХЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2718>
8. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3034>
9. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3035>
10. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ ТАХЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 12(2), 263–271. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2557>
11. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи қўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3036>
13. Тулаев, М. С., & Кличев, Б. П. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИЙ: ОБЯЗАТЕЛЬСТВО ИЛИ КАПИТАЛ. In Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции (pp. 146-154).
14. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3037>
15. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАХЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2876>
16. Yuldashevna, R. U. (2022). Monitoring of Credit Risks as Financial Resources In Commercial Banks. *International journal of trends in business administration*, 12(1).
17. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. World Scientific Research Journal, 26(3), 177–184. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3261>
18. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI . World Scientific Research Journal, 16(1), 20–22. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/2693>